

**BRANXIAL ASTMA (БРАНХИАЛЬНАЯ АСТМА) KASALLIGI VA UNI
DAVOLASHDA ISHLATILADIGAN O'SIMLIKLAR**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14501924>

Bajardi: Maqsudboeva Maftuna Haytboy qizi

Bajardi: Abidova Gulsanam Hakim qizi

Ilmiy raxbar: Jumonova Nargiza Eshmamotovna

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti pediatriya fakulteti 1-kurs 124-guruh
talabalari*

Annatsiya

Ushbu maqolada astma yani (ziqnafas) kasalligi va uni davolashda ishlatiladigan o'simliklar va astma kasalligi asoratlari haqida malumot keltirilgan. Bu maqolada ilmiy manbalardan foydalangan holda Branxiyal astma kasalligi va unga tashhis qo'yish va uni davolashda usullari haqida bayon etilgan. Bronchial astma hastaligi nafas yollarining surunkali yalliglanishi bilan xarakterlanib, allergik tabiatli hastalik hisoblanadi. Branxial astma hastaligida nafas yollaridagi obstruksiya darajasiga bogliq holda kardiovaskulyar tizimdagi o'zgarishlar turli intensivlikda rivojlanadi Hozirgi davrda Branxial astma bilan hastalanganlar va yurak-qon tomir tizimi xastaliklari hamrohlikda kechishi ko'p uchramoqda va bu holat BA og'irlik darajasini kuchayishiga olib kelmoqda. Tekshirish natijalari bo'yicha bronxial astma kasalligida shifokorlar tomonidan belgilangan davolashga to'liq rioya qilishi o'rtacha hisobda 41,33% ni tashkil qildi. Tadqiqotchilarning aniqlashicha belgilangan terapiyaga rioya qilmaslikning asosiy sabablari: unutulchanlik, dorilar haqida etarli ma'lumotlarga ega emasligi, boshqa ishlar bilan band bo'lib qolishi, moliyaviy yuk, nojuya tasirlar va ulardan xavfsirash, bemorlarning keksaligi, nafas olish yoli bilan yo'boriladigan dorilarni to'g'ri ishlatishdagi qiyinchiliklar ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar

branxiyal astma astma (ziqnafas) Behi, Anjir, O'rik, Bodom, Soxta kashtan, Murch, Chilonjiyda

**БРОНХИАЛЬНАЯ АСТМА И ПРЕПАРАТЫ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ ПРИ ЕЕ
ЛЕЧЕНИИ**

Анататфция

В этой статье представлена информация о заболевании астмой, растениях, используемых при ее лечении, и осложнениях астмы. В данной статье описана диагностика и лечение бронхиальной астмы с использованием научных источников. Бронхиальная астма характеризуется хроническим воспалением дыхательных путей и является аллергическим заболеванием. При бронхиальной астме изменения сердечно-сосудистой системы развиваются с различной интенсивностью в зависимости от степени обструкции дыхательных путей. В настоящее время больных бронхиальной астмой часто сопровождают заболевания сердечно-сосудистой системы, и такая ситуация приводит к нарастанию тяжести течения заболевания. астма. По результатам проверки полная приверженность назначенному врачами лечению при бронхиальной астме составила в среднем 41,33%. По мнению исследователей, основными причинами несоблюдения назначенной терапии являются: забывчивость, недостаток информации о лекарствах, занятость другой работой, финансовая нагрузка, побочные эффекты и риск их возникновения, пожилой возраст пациентов, применение ингаляционных препаратов. Выяснилось, что пользоваться гру сложно.

Ключевые слцца

Бранхиальная астма, айба, априкос, инжир, миндаль, лщжный каштан, перец черный,чилонгнджи

BRANCHIAL ASTHMA DISEASE AND PLANTS USED IN ITS TREATMENT

Abstract

This article provides information about the disease of asthma, the plants used in its treatment, and the complications of asthma. This article describes the diagnosis and treatment of bronchial asthma using scientific sources. Bronchial asthma is characterized by chronic inflammation of the airways and is an allergic disease. In bronchial asthma, changes in the cardiovascular system develop with different intensity depending on the degree of obstruction in the airways. Currently, patients with bronchial asthma are often accompanied by diseases of the cardiovascular system, and this situation leads to an increase in the severity of asthma. According to the results of the inspection, full adherence to the treatment prescribed by doctors in bronchial asthma was 41.33% on average. According to the

researchers, the main reasons for non-adherence to prescribed therapy are: forgetfulness, lack of information about drugs, being busy with other work, financial burden, side effects and risk of them, old age of patients, use of inhaled drugs. It was found that it was difficult to use gry.

Keywords

Branchial asthma,quenci,fig,apricot,almond,false chestnut,almond,pepper,chilongjii,

KIRISH

Hozirgi kunda astma kasalligi juda ko'p turlari mavjud bo'lib, uning kelib chiqish sabablari aniqlash va tabobatda bu kasallika qarshi kurashning nisbatan samarali vositalarni ishlab chiqarishga alohida etibor qaratilmoqda, ko'pincha yuqori o'pka nafas yo'llari bronxlarining yallig'lanishi natijasida nafas siqilishi paydo bo'ladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Astma yunon tilidan olingan bo'lib **asthma**-ho'llashlar, bo'g'ilib qolish) bronhlar teshigining to'saddan torayib qolishi yoki yurak kasalliklari natijasida tutadigan bo'g'ilish xuruji. Bu kassallikning kelib chiqishiga bir qancha omillar sabab bo'lishi mumkun. Birinchidan "**allergen**" deb ataluvchi yot moddalarning organizmga tushganda hosil bo'ladigan kasallik. Bundan tashqari ko'p sigaret chekuvchi kashandalarda ham astma kasalligini paydo bo'lishi ko'p uchrashi aniqlangan. Turli hil chang zarralari, gazlarning isi hamda bug'simon zarrachalardan chuqur nafas yo'llariga o'tib organizmga, ayniqsa nafas yo'llari faoliyatiga salbiy tasir ham bu kasallikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Bronhial astma so'ngi yillarda dunyoda keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib, jiddiy ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy muammoga aylanib bormoqda. JSST molumotlarida keltirishicha so'ngi 25 yil mobaynida o'tkazikgan epidemologik tadqiqotlarga binoan branxial astma kasalligi katta yoshdagi aholining 5-10% va bolalarning 5-15% ga yaqinida aniqlangan. 10 yoshgacha bo'lgan o'gil bolalar , kattalardan esa ayollarda ko'proq kasallanishadi. Yashab turgan joy, uning havosi-iqlimi uzoq vaqtlar ichida organizmga moslashmaganligi va tabiatning turli xil tasirchan vositalari yo'g'ri kelmasligidan nafas yo'llari yallig'lanib, o'pkada va boshqa azolarda, balg'amga o'xshash xiltlarning yig'ilib nafas yo'llari berkitilib qo'yishi nafas siqilishiga olib keladi.

Branxial astma kasalligini keltirib chiqaruvchi asosiy omillar

No	Xavf omilining asosiy guruhlari	Xavf omillari
1		Atopiya

	Olib keluvchi omillar	Nasliy moyillik Uy allergenlari Uy changi Suvarak va boshqa hashorotlar allergenlari Zamburug' allergenlari O'simlik changi Professiyonal allergenlar
2	Sabab bo'luvchi omillar	Oziq-ovqat Sigir suti, baliq, tovuq tuxumi, un va boshqalar Tarkibida gistamin ko'p bo'lgan maxsulotlar (asa, pomidor, taxir karam, konservalar) Qulupnay, sitrus mevalar, shokolad, pista, m, ananas, alkogol Konservant va bo'yoq moddalar (solitsillar, mate, sulfit) Dori vositalari Aspirin, nosteroid yallig'lanishga qarshi alar Antibiotoklar Imminoglabulin va boshqalar
3	Branxial astma rivojlanishini aytiruvchi omillar	Respirator infeksiya Havo pollyutantlari Cekish (passiv va faol) Ovqat maxsulotlari va konservantlar

Kasallikning asosiy belgilari. Bronxial astma kasalligiga chalingan bemorning vaqti-vaqti bilan nafasi siqiladi, havo olishi qiyinlashib, bo'g'iladi. Ko'pincha kasallik kechasi xuruj qiladi, u davomli sur'atda bemorni azoblaydi. Bu kasallikning asosiy belgilari tez-tez nafas olish, xansirash, ter bosib nafas yetishmasligi sababli bezovtalanish, ba'zan esa xuruj o'ta qattiq bo'lganida lablar va tirnoqlarning ko'karishi, yurak urishining tezlashuvida ko'rinadi. Ko'pincha astma xuruji boshlanishidan avval yo'tal, burun va tomoqning qattiq qichishi va achishi, holdan toyish belgilari seziladi. Xuruj mobaynida oz miqdorda oq ko'pik yoki sarg'ish balg'am tushgach, bemor biroz yengil tortadi. Bemor o'ta o'g'ir ahvolga tushib qolmasligi uchun yuqorida aytilgan kasallik alomatlarini sezila boshlashi bilanoq shifo vositalari qo'llanishi zarur.

Astma kasalligini davolashda quyidagi o'simliklarimizdan xalq tabobatida foydalaniladi:

Behi (Cydonia oblonga Mill.). Behi qadim zamonlardan beri shifobaxsh meva sifatida malum bo'lgan va uning bir qator ijobiy xususiyatlari haqida turli

manbalarda bir qator fikrlar bayon etilgan. Abu Ali ibn Sino tomonidan ham behi astma kasalligini davolashda muvaffaqiyatli qo'llangan. Behi urug'ining bir qoshig'idan tayyorlangan maxsus damlama balg'am ko'chiradi va yengil nafas olishga yaxshi yordam beradi.

Anjir (*Ficus carica*). Abu Ali ibn sino tavsiyasiga binoan anjir mevasini sut bilan qo'shib qaynatib ichilsa, balg'am ko'chiruvchi va yo'tal qoldiruvchi vosita bo'lib yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Anjir mevasi qoqisidan tayyorlangan damlama og'ir yo'talni qoldiruvchi vosita sifatida tavsiya etiladi. Damlamadan ovqatdan oldin kuniga 4-5 mahal bir piyoladan kamida uch kun ichish tavsiya etiladi.

O'rik (*Armeniaca vulgaris*). O'rik mevasi va danagi tarkibida juda ko'p foydali moddalar, darmondorilar, borligi aniqlangan. Undan tashqari karotin moddasi, organik kislotalar, efir moylari, temir, mis, marganets, kalsiy, magniy mikroelementlari juda ko'pligi uning shifobaxshligini oshiradi. O'rik urug'ining damlamasi nafas yo'llarining yallig'lanishida davo sifatida ishlatiladi, o'rik urug'ini quritib hovonchada yanchib, un shaklida yarim choy qoshiq miqdorida 4-5, hattoki 6-8 mahal iste'mol qilish tavsiya etiladi. O'rik turshagini ham muntazam ravishda qaynatib ichib turish, ayniqsa, qish faslida bemorlar uchun foydali hisoblanadi.

Bodom (*Prunus dulcis*). Bodomning ikki turi bor: achchiq bodom va chuchuk bodom. Abu Ali ibn Sino achchiq bodomning urug'i va moyini yo'talda, astmada, o'pka silida, qon tupurishda ishlatgan. Ishlatish uchun achchiq bodom urug'idan moyjuvozda yoki boshqa usul bilan bo'lsada, siqib yog'i olinadi -da, shu yog'idan bir choy qoshiqdan kuniga 3-4 mahal ovqatdan yarim soat oldin ichib turiladi. Moyini olish iloji bo'lmagan chog'da, achchiq bodomning danagini urug'i bilan hovonchada yanchib, maydalab yarim litr qaynab turgan suvga ikki osh qoshiq solib bir necha soat damlab qo'yiladi, shu damlamadan kuniga 3-4 mahal ovqatdan oldin yarim piyolada ichib turiladi.

Soxta kashtan (*Aesculus hippocastanum*). Soxta kashtanning guli, novda po'stlog'i va mevasi yigib olinib, quritiladi. Po'stlog'i tarkibida eksulin, fraksin, saponin, yog' va boshqa moddalar bor, gulida butin, pektin moddalar, urug'ida kraxmal, saponin, yog' va boshqa moddalar mavjud. Xalq tabobatida soxtakashtan po'stlog'idan tayyorlangan qaynatma- bronxit, astma va shamollash oqibatida kelib chiqqan bod, ichak kasalliklariga tavsiya etiladi. Po'stloqdan damlama tayyorlash uchun idishga 2 stakan qaynatib sovutilgan suv quyib, ustiga maydalangan po'stloqdan bir choy qoshiq solinadi va 8 soat quyib qo'yiladi. So'ngra dokada suziladi. Damlamadan kuniga 4 mahal chorak stakandan ichiladi.

Murch (*Piper nigrum*). Xalq tabobatida shamollash oqibatida yo'talganda, bronxial astmaga chalinganda, ko'krak og'riganda, kasallik boshlanayotganda

terlatuvchi va peshob haydovchi sifatida qo'llanilgan. Abu Ali ibn Sinoning yozishicha, murchda tortish, shimdirish va tozalash quvvati bor. Murch yo'talga, ko'krak og'riqlariga foyda qiladi. Agar asal bilan qo'shib tanglayga surilsa tomoq og'rig'iga foyda qiladi va o'pkani tozalaydi.

Kunjut (Sesamum). Abu Ali ibn Sino kunjut urug'i bilan moyini teng miqdorda aralashtirib, astma kasalligida on kun mobaynida kuniga uch mahal bir choy qoshiq miqdorida ovqatdan yarim soat oldin ichib turishni tavsiya etgan.

Chilonjiyda (Ziziphus Mill.). Chilonjiydaning mevasi tarkibida qandlar, organik kislotalar, ko'p miqdorda C vitamini, oshlovchi moddalar bor. Abu Ali ibn Sino va xalq tabobatchilari chilonjiyda mevasidan tayyorlangan damlamani ko'krak og'riganda, balg'am ko'chiruvchi. O'pka tonusini ko'taruvchi va boshqa ichak kasalliklarida ishlatgan.

MUHOKAMA

Bundan tashqari astma kasalligini davolashda Qimiz (biya sutidan) dan ham foydalaniladi. Qimiz tarkibida o'ta foydali va son o'zlashtiriladigan oqsil mavjud, bir litr ot sutida 20 gr gacha oqsil moddasi, 0.5-2.5 foizgacha spirt bo'ladi. Qimiz organizmga juda tez singadi, natijada modda almashinuvi yaxshilanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, men bu maqolani yozish orqali Braxial astma kasalligi haqida ko'plagan malumotlarga ega bo'ldim va ularni qanday qilib davolash, kelib chiqish sabablarini o'rgandim. Kasallikning asosiy beldilarini o'rgandim ularga: bronxial astma kasalligiga chalingan bemorning vaqti-vaqti bilan nafasi siqiladi, havo olishi qiyinlashib, bo'g'iladi. Ko'pincha kasallik kechasi xuruj qiladi, u davomli sur'atda bemorni azoblaydi. Bu kasallikning asosiy belgilari tez-tez nafas olish, xansirash, ter bosib nafas yetishmasligi sababli bezovtalanish, ba'zan esa xuruj o'ta qattiq bo'lganida lablar va tirnoqlarning ko'karishi, yurak urishining tezlashuvida ko'rinadi. Nafaqat astma kasalligini davolashda ishlatiladigan o'simliklar balki barcha kasalliklarga davo bo'luvchi o'simlik turlarini ko'paytirish, ularni muhofaza qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shukur Ergashev " Yuz dardga yuz davo". "Abu Ali ibn Sino" nomidagi tibbiyot nashriyoti. Toshkent 2002.
2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. T.Fan. 1982-yil. II kitob.
3. Xolmatov X. X., Habibova Z.X. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari, T., Meditsina, 1976

4. Xaydarov Q.X., Xojimatov Q.X. O'zbekistonning o'simliklari. T., Meditsina 1976.
5. Xaydarov Q.X., Pulatova T.P, Jurayev I. Toshkent viloyatining dorivor o'simliklari. T., Meditsina, 1980.
6. Turdalievich T. A., Gulyam Y. Morphological features of pedolytical soils in Central Ferghana //European science review. - 2016. - №. 5-6. - С. 14-15.
7. Valijanovich M. O. et al. Biogeochemistry Properties of Calcisols and Capparis Spinosa L //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. - 2021. - С. 3227-3235.
8. Turdaliev, A., Yuldashev, G., Askarov, K., & Abakumov, E. (2021). Chemical and biogeochemical features of desert soils of the central Fergana. Agriculture, 67(1), 16-28.
9. Gadayev Abdug'affor. Ichki kasalliklar "Turon zamini ziyo" Toshkent-2016 yil. 54-70-varoqlar.
10. Тошмаматов Б. Н. и др. МАКРОСКОПИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ ИЛЕОЦЕКАЛЬНОЙ ЗАСЛОНКИ У КРОЛИКОВ //International Scientific and Practical Conference World science. - ROST, 2017. - Т. 5. - №. 5. - С. 58-59.
11. Nazarova F. S., Dzhumanova N. E. HAIR AND WOOL AS INDICATORS OF ENVIRONMENTAL POLLUTION BY MAN-MADE AND GEOCHEMICAL SOURCES //Thematics Journal of Microbiology. - 2022. - Т. 6. - №. 1.
12. Dzhumanova N. E., Nazarova F. S. PROBABLE NEGATIVE IMPACT OF GENETICALLY MODIFIED PRODUCTS ON HUMAN HEALTH //Thematics Journal of Botany. - 2022. - Т. 6. - №. 1.
13. Sharipovna N. F. et al. BIOLOGICAL ROLE OF MICROELEMENTS AND THEIR CONTENT IN EPIDERMAL FORMATIONS //European Journal of Molecular and Clinical Medicine. - 2021. - Т. 8. - №. 2. - С. 1675-1687.
14. Худайбердиева Г. А., Назарова Ф. Ш., Джуманова Н. Э. Сравнительный анализ экологического состава фитонематод //Форум молодых ученых. - 2021. - №. 4. - С. 381-385.
15. Назарова Ф. Ш., Джуманова Н. Э. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ БЕНТОНИТА АЗКАМАРСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ ДЛЯ БАЛАНСИРОВАНИЯ МИНЕРАЛЬНОГО ПИТАНИЯ //Academic research in educational sciences. - 2021. - Т. 2. - №. 9. - С. 672-679.
16. Мухитдинов Ш. М. и др. ВЗАИМОСВЯЗЬ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ С ПРОДУКТИВНОСТЬЮ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКИМИ СВОЙСТВАМИ КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC

REVIEW OF THE PROBLEMS OF NATURAL SCIENCES AND MEDICINE. – 2019.
– С. 86-95.

17.Мухитдинов Ш. М. и др. ВЗАИМОСВЯЗЬ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ С ПРОДУКТИВНОСТЬЮ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКИМИ СВОЙСТВАМИ КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF NATURAL SCIENCES AND MEDICINE. – 2019. – С. 86-95.

18.Тошмаматов Б. Н. и др. МАКРОСКОПИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ ИЛЕОЦЕКАЛЬНОГО ОТВЕРСТИЯ У КРЫС И КРОЛИКОВ В ПОСТНАТАЛЬНОМ ОНТОГЕНЕЗЕ //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2018. – Т. 3. – №. 5. – С. 53-54.

19.Melitoshevich V. A., Alikulovich V. D. Main Issues of Statistical Analysis in Medical Research //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 13. – С. 129-132.

20.Назарова Ф. Ш., Джуманова Н. Э., Дониёрова П. Х. ДИАГНОСТИКА НАСЛЕДСТВЕННОСТИ И СИМПТОМОВ НАРУШЕНИЯ УГЛЕВОДНОГО ОБМЕНА И ГАЛАКТОЗЕМИИ. – 2023.

21.Djumanova N. E., Qaxramon o'g'li A. N. SALTING OF SUCKERS AND THE DISEASES THEY CAUSE LIVERWORM //World Bulletin of Public Health. – 2023. – Т. 21. – С. 82-85.

INTERNET SAYTLARI:

- 1.www.uzmedical.com
- 2.www.arxiv.uz.shifobaxsh o'simliklar
- 3.www.uz.kasalliklar.com